

"O'ZBEKISTON" NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI



"O'zbekiston" NMIU - O'zbekistondagi eng yirik nashriyot-matbaa ijodiy uyi hisoblanadi. U O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tizimiga kiradi. 2004 yili "O'zbekiston", "Mehnat", "O'zblanknashr" va Toshkent matbaa kombinati bazasida "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi tashkil etildi. Uning tarmog'iga bolalar nashrlari - "Gulxan", "G'uncha" jurnallari, "Tong yulduzi", "Klass", "Sog'lom avlod", "Zerkalo XXI", "Kitob dunyosi" gazetalari tahririylatlari kiradi.

"O'zbekiston" nashriyoti 1925 yili O'rta Osiyo davlat nashriyoti negizida O'zbekiston davlat nashriyoti (O'zdavnashr) sifatida tashkil etilgan. 1964 yili "O'zdavnashr" "O'zbekiston" nashriyoti etib qayta nomlangan. Nashriyot ijtimoiy-iqtisodiy, ommaviy-siyosiy, ilmiy-ommabop, huquqiy, ishlab chiqarish, texnik, qishloq xo'jaligi, ma'lumotnoma va huquq adabiyotlarini nashr etishga ixtisoslashgan edi.

Toshkent matbaa kombinati respublikada eng yirik matbaa korxonalaridan biri bo'lib, u 1967 yili 3- va 5- bosmaxonalar negizida tashkil etilgan. Bu erda xalq iste'moli uchun zarur bo'lgan matbaa mahsulotlarining barcha turlari ishlab chiqarilgan. "O'zblanknashr" nashriyoti 1922 yili "Ñîþçó÷åòèçääò" nashriyotining O'zbekiston bo'limi negizida tashkil etilib, barcha turdag'i blankalarni, shu jumladan, statistik hisobot blankalarini ham ishlab chiqargan.

1985 yili tashkil etilgan "Mehnat" nashriyoti iqtisodiy, ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, olyi o'quv yurtlari, umumta'lim maktablari, litseylar, kollejlар uchun darslik va o'quv qo'llanmalar nashr etishga ixtisoslashgan edi.

"O'zbekiston" NMIU O'zbekiston Respublikasi qonunlari va respublika hukumati qarorlarini, boshqa rasmiy materiallar va normativ hujjatlarni nashrga tayyorlaydi va chop etadi. Bu yerda, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, yuridik adabiyotlar, umumta'lim maktablari, olyi va o'rta maxsus o'quv yurtlari uchun darsliklar, uslubiy qo'llanmalar va boshqa o'quv adabiyotlari nashr etadi. Darsliklar o'zbek, rus,qozoq, qirg'iz, turkman, tojik tillarida chop etiladi. Ilmiy-ommabop, badiiy va ma'lumotnoma adabiyotlar, lug'atlar, tasviriy mahsulotlar, fotoalbumlar, bukletlar, prospektlar, kalendarlar, plakatlar, ko'rgazmali qo'llanmalar, jurnallar, gazetalar o'zbek, qardosh va chet tillarida nashr etiladi. "O'zbekiston" NMIUning matbaa bazasida xalq iste'moli uchun zarur bo'lgan bosma mahsulotlar - turli blankalar, maktab jurnallari, programmalar, qog'oz mahsulotlari bosib chiqariladi. "O'zbekiston" NMIUning gazeta sexida zamonaviy rangli gazetalar bosiladi. Bugungi kunda sexda 20 dan ortiq nomdagi gazetalar va jurnallar chiqariladi.

Direktor: **Isadjanov Zoir Tursunboevich**

Tel.: (99871) 244-34-01

Manzil: 100129 Toshkent. Navoiy, 30.

Telefon: 244-37-81

Faks: 244-38-10

e-mail: artpk@ars.uz , iptd.uzbekistan@mail.ru

www.iptd-uzbekistan.uz